

METHODS OF ENSURING VIRTUAL COLLABORATION IN ONLINE EDUCATION

Xudayberganova Gulnora Tuxtabayevna

2nd year master's student, majoring in "Information Technologies in
Education", Asian International University

Abstract

This article discusses the need for, existing opportunities for, and methods of implementing virtual collaboration in online education. It also provides a conclusion on the implementation of virtual collaboration in online education.

Key words.

Education, online education, collaboration, program, virtual collaboration, method.

ONLAYN TA'LIMDA VIRTUAL HAMKORLIKNI TA'MINLASH USULLARI

Xudayberganova Gulnora Tuxtabayevna

Osiyo xalqaro universiteti "Ta'limda axborot texnologiyalari"
mutaxassisligi 2-bosqich magistratura talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada onlayn ta'limda virtual hamkorlikni ta'minlash zaruriyati, mavjud imkoniyatlari va amalga oshirish usullari yoritilgan. Shuningdek, onlayn ta'limda virtual hamkorlikni ta'minlash yuzasidan xulosa keltirilgan.

Kalit so'zlar

Ta'lim, onlayn ta'lim, hamkorlik, dastur, virtual hamkorlik, usul.

Аннотация

В данной статье рассматриваются необходимость, существующие возможности и методы внедрения виртуального сотрудничества в онлайн-образовании. Также приводятся выводы о внедрении виртуального сотрудничества в онлайн-образовании.

Ключевые слова

Образование, онлайн-образование, сотрудничество, программа, виртуальное сотрудничество, метод.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim tizimiga katta o'zgarishlar olib kirdi. Bu borada onlayn ta'lim shakli keng tarqalib, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Ushbu jarayonda virtual hamkorlikni ta'minlash asosiy sharti bo'lib hisoblanadi. Virtual hamkorlik ishtirokchilarning geografik jihatdan turli joylarda bo'lgan holda, raqamli texnologiyalar orqali birgalikda ishlash, fikr almashish va natijaga erishish jarayonini aks ettiradi. Virtual hamkorlik onlayn ta'limda jamoaviy ishlash ko'nikmalarini shakllantiradi, muammolarni birgalikda hal qilishni ta'minlaydi, talabalarning faolligini oshiradi hamda mustaqil va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi. Ushbu hamkorlik ta'lim sifatiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, an'anaviy ta'limga nisbatan interaktiv muhit yaratadi.

Virtual hamkorlik zamonaviy ish joylarida faol qo'llaniladi. Chunki, ko'proq kishilar uydan yoki ofisdan tashqarida masofadan turib ishlaydi. Kompyuterlardagi texnologik yutuqlar tashkilotlar uchun virtual hamkorlikdan foydalanishni oson qildi. Tezroq va murakkab internetga ulanish tizimlari tufayli idoradan tashqarida ishlashda katta yutuqlarga erishildi. Masofaviy ish unumdorligi tashkilotda ishlashdan kam emas. Bu esa menejerlarga jahon dunyo bo'ylab iste'dodlardan firma manfaati uchun foydalanish imkonini beradi. "Virtual" so'zini o'z ichiga olgan texnologiya olamidagi har qanday atama kompyuterlar bilan bog'liq bo'ladi [1]. Virtual hamkorlik tashkilotdagi turli kishilar o'z stollarida emas, ya'ni uni amalga oshirishda dunyoning istalgan nuqtasidan ishlash uchun kompyuterlardan foydalanadilar. Virtual ta'lim masofaviy ta'lim bilan chambarchas bog'liq, lekin u bilan cheklanib qolmaydi [2]. Kompyuterlar virtual hamkorlikni qo'llab-quvvatlaydigan dasturiy ta'minot bilan jihozlangan bo'lib, unda xodimlar jismoniy uchrashmasdan birga ishlashlari mumkin. Dastur ishlashi uchun tez va ishonchli internet aloqasi talab qilinadi. Ko'p sabablarga ko'ra, virtual jamoalarni boshqarish an'anaviy yuzma-yuz ofis muhitida xodimlarni boshqarishdan farq qiladi [3]. Vizual elementlardan foydalanish g'oyalarni tizimlashtirish va ularni tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi.

Onlayn ta'limda virtual hamkorlikni ta'minlash quyidagi usullarga ajratiladi:

- sinxron muloqot vositalari. Sinxron hamkorlik - real vaqtda amalga oshiriladigan muloqotdir. Bu vositalar videokonferensiyalar (Zoom va Microsoft Teams), onlayn vebinarlar va jonli chatlar kabilar orqali amalga oshiriladi. Bu usul orqali talabalar va o'qituvchi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa o'rnatiladi, savol-javoblar tashkil etiladi.

- asinxron muloqot usullari. Asinxron hamkorlik vaqt jihatdan erkinlik beradi. Ya'ni, ularga forumlar, elektron pochta va LMS platformalari (Moodle va Google Classroom) kiradi. Bu usul talabalarga ma'lumotni o'rganish va javob berish uchun ko'proq vaqt beradi.

- kuruhli loyiha ishlari. Onlayn ta'limda talabalarni guruhlariga bo'lib, taqdimot tayyorlash, ilmiy tadqiqot ishlari va keys tahlil kabi vazifalar beriladi. Bu orqali hamkorlik, mas'uliyat va liderlik ko'nikmalari shakllanadi.

- bulutli texnologiyalardan foydalanish. Bulutli xizmatlar virtual hamkorlikning asosiy vositasi sifatida Google Docs, Google Drive va Dropbox kabilar xos bo'ladi. Bu platformalar bir vaqtning o'zida bir necha foydalanuvchiga hujjat ustida ishlash imkonini beradi.

- onlayn muhokama va debatlar. Talabalar o'rtasida muammoli savollar muhokamasi, debatlar tashkil etish va fikr almashish amalga oshiriladi. Ushbu usul tanqidiy fikrlashni rivojlantiradi.

Shuningdek, virtual hamkorlik samaradorligi quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi:

- texnologik infratuzilma (barqaror internet, zamonaviy qurilmalar va qulay platformalar);
- pedagogik yondashuv (interaktiv metodlar, talabalarni rag'batlantirish, faol ishtirokni ta'minlash);
- kommunikatsiya madaniyati (o'zaro hurmat, fikrni aniq bayon qilish va jamoada ishlash ko'nikmasi).

Biroq, onlayn ta'limda internet sifatining pastligi, talabalar faolligining kamligi, texnik bilimlarning yetarli emasligi va kommunikatsiyada tushunmovchiliklar kabi muammolar kuzatilishi mumkin. Ushbu muammolarni hal qilish uchun qo'shimcha treninglar, texnik yordam va motivatsiya tizimini kuchaytirish zarur. Biroq, bu borada Sun'iy intellekt asosida ta'lim platformalarini joriy etish, virtual va qo'shimcha reallik (VR/AR) texnologiyalarini qo'llash, personallashtirilgan ta'lim tizimini rivojlantirish hamda geymifikatsiya unsurlarini joriy etish kabi yo'nalishlarga e'tibor qaratish lozim.

Oliy ta'limda virtual hamkorlik dasturi esa masofaviy ishchilarga aloqada bo'lish, ishning borishi haqida hisobot berish, ish bilan bog'liq muammolarni hal qilish va natijada samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bu holatda ko'rib chiqilgan virtual jamoaviy hamkorlik dasturi uzoqdan ishlaydigan ishchilarga qoniqarli muloqot qilish imkonini beruvchi turli tipik xususiyatlarga ega bo'ladi. Ushbu virtual hamkorlik dasturi ekranni almashish, hujjat almashish, video va audio konferensiya, lahzali xabar almashish, shaxsiy va guruh suhbatlari va uchrashuvlarni yozib olish imkonini beradi va shu bilan aniq muloqotni oshiradi.

Xulosa shuki, onlayn ta'limda virtual hamkorlikni ta'minlash ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish, to'g'ri pedagogik yondashuvni tanlash va talabalarning faol ishtirokini ta'minlash orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Bu borada virtual hamkorlik bilim berish va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim vosita bo'lib hisoblanadi. Shu bois, uni yanada takomillashtirish va keng joriy etish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifasi bo'lib qolishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://ru.eztalks.com/video-conference/virtual-collaboration-boost-your-business-with-less-costs.html>
2. Murodova A.Y. Virtual ta'lim texnologiyalari asosida bo'lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning tashkiliy-tuzulmaviy modelini yaratish. // "Экономика и социум", №2(117), 2024. - 1-9 b.
3. Балашова И.В. Внедрение цифровых технологий в организацию работы виртуальных команд. // Научный вестник: Финансы, банки, инвестиции, 2022, №4. - с. 92.